



INTERPRETATION OF RELIGIOUS TOLERANCE AND INTERETHNIC HARMONY IN THE HADITHS

Ahmad Muhammadiyevich Jurayev

Head of the Department of Social Sciences

Vatan University, Associate Professor

juraev.1982@mail.ru

Tashkent Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Hadith, religious tolerance, interethnic harmony, human dignity, social cohesion, Islam, civic solidarity, intercultural dialogue.

Received: 04.08.26

Accepted: 05.08.26

Published: 06.08.26

Abstract: This article provides a theoretical and scholarly analysis of the interpretation of religious tolerance and interethnic harmony in the Hadiths. Based on the teachings of Islam and the Prophetic traditions, the principles of human dignity, freedom of belief, and respect for representatives of different religions and ethnic groups are examined. The study also highlights the role of religious tolerance in ensuring social stability, social cohesion, and civic solidarity. Furthermore, the significance of the Hadiths for the development of contemporary multiethnic and multiconfessional societies is substantiated from a scholarly perspective.

HADISLARDA DINIY BAG'RIKENGLIK VA MILLATLARARO TOTUVLIK MASALALARI TALQINI

Ahmad Muhammadiyevich Jo'rayev

Vatan universiteti Ijtimoiy fanlar

kafedrasi mudiri, dotsent

juraev.1982@mail.ru

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: hadis, diniy bag'rikenglik, millatlararo totuvlik, inson qadr-qimmati, ijtimoiy hamjihatlik, islom, fuqarolik birdamligi, madaniyatlararo muloqot.

Annotatsiya: Mazkur maqolada hadisi shariflarda diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik masalalarining talqini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Islom ta'limotida inson qadr-qimmati, e'tiqod erkinligi, turli din va millat vakillariga hurmat bilan munosabatda

bo'lish tamoyillari hadislar asosida yoritiladi. Shuningdek, diniy bag'rikenglikning jamiyat barqarorligi, ijtimoiy hamjihatlik va fuqarolik birdamligini ta'minlashdagi o'rni ochib beriladi. Tadqiqot davomida hadislarining zamonaviy ko'p millatli va ko'p konfessiyali jamiyatlar taraqqiyotidagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslanadi.

ТОЛКОВАНИЕ ВОПРОСОВ РЕЛИГИОЗНОЙ ТОЛЕРАНТНОСТИ И МЕЖНАЦИОНАЛЬНОГО СОГЛАСИЯ В ХАДИСАХ

Ахмад Мухаммадиевич Джурсаев

Заведующий кафедрой социальных наук Университета «Ватан», доцент

juraev.1982@mail.ru

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: хадис, религиозная толерантность, межнациональное согласие, человеческое достоинство, социальная сплочённость, ислам, гражданская солидарность, межкультурный диалог.

Аннотация: В данной статье проводится научно-теоретический анализ интерпретации вопросов религиозной толерантности и межнационального согласия в хадисах. На основе исламского учения и хадисов раскрываются принципы уважения человеческого достоинства, свободы вероисповедания, а также уважительного отношения к представителям различных религий и национальностей. Кроме того, освещается роль религиозной толерантности в обеспечении общественной стабильности, социальной сплочённости и гражданской солидарности. В ходе исследования научно обосновывается значение хадисов для развития современных многонациональных и многоконфессиональных обществ.

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida turli din, millat va madaniyat vakillarining o'zaro hamkorlikda yashashi jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik insoniyat sivilizatsiyasining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi asosiy qadriyatlardan sanaladi. Islom dini insonlarni irqi, millati, tili va diniy mansubligidan qat'i nazar, hurmat qilish, adolatli munosabatda bo'lish va tinch-totuv yashashga da'vat etadi. Bu g'oyalar Qur'oni karim bilan bir qatorda hadisi shariflarda ham keng ifodasini topgan. Hadislar musulmonlar hayotida Qur'ondan keyingi ikkinchi asosiy manba sifatida diniy, axloqiy va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda muhim ahamiyatga ega. Ularda insonlar o'rtasidagi mehr-oqibat, bag'rikenglik, adolat va o'zaro hurmat tamoyillari keng yoritilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar sharxi. Bugungi kunda diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik masalalari xalqaro ilmiy hamjamiyat tomonidan keng o'rganilmoqda. Xususan, hadislar asosida dinlararo muloqot va tolerantlik masalalarini tadqiq qilgan olimlar islom ta'limotining insonparvarlik mohiyatini ochib berishga alohida e'tibor qaratganlar. Issa Khan va hammualliflar tomonidan olib borilgan tadqiqotda Islomda dinlararo muloqotning nazariy asoslari tahlil qilinib, Qur'on va Sunnat turli diniy jamoalar bilan adolatli, tinch va o'zaro hurmatga asoslangan munosabatlarni rivojlantirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslangan. Mualliflar diniy bag'rikenglikning asosiy tamoyillari sifatida adolat, diniy erkinlik va ijtimoiy hamkorlikni e'tirof etadilar [1, 1-10-pp.]. Muhammad Zaini o'z tadqiqotida hadislar asosida tolerantlikning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganib, Rasululloh s.a.v. sunnatlarida insonlar o'rtasidagi birodarlik, rahm-shafqat va ijtimoiy hamjihatlik g'oyalari ustuvor o'rin tutishini ta'kidlaydi [2, pp. 109–122]. Tadqiqot natijalariga ko'ra, hadislar zamonaviy ko'p madaniyatli jamiyatlarda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlovchi muhim ma'naviy manba hisoblanadi.

Moh. Misbakhul Khoir tomonidan amalga oshirilgan ilmiy izlanishda hadislarini matniy va kontekstual talqin qilish usullarining diniy bag'rikenglikka ta'siri o'rganilgan [3, pp. 1–22]. Tadqiqot natijalari hadislarini tarixiy va ijtimoiy sharoitlarni hisobga olgan holda talqin qilish tolerantlik va dinlararo hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qilishini ko'rsatadi. Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlarda diniy moderatsiya, bag'rikenglik va ijtimoiy hamjihatlik tushunchalari Qur'on va hadislarining fundamental qadriyatlarini sifatida talqin qilinmoqda. Bu qadriyatlar turli millat va din vakillarining tinch-totuv yashashiga xizmat qiluvchi muhim ijtimoiy omil sifatida baholanadi. Mahalliy olimlardan J.Xolmo'minov tadqiqotlarida tasavvufning ontologiyasi, ijtimoiy uyg'unlik va ma'naviy tarbiyadagi rolini ochib beradi [4-6].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda komparativistik yandashuv, tarixiy-metodik usul, analiz va sintez, germeneytik tahlil va empirik-usullardan foydalanildi.

Muhokama va natijalar. Islom ta'limotida inson eng oliy mavjudot sifatida e'tirof etiladi. Hadislarning «لَا يُؤْمِنُ أَحَدُكُمْ حَتَّىٰ يُحِبَّ لِأَخِيهِ مَا يُحِبُّ لِنَفْسِهِ» (رواه البخاري، كتاب الإيمان، حديث) va «لَا يُؤْمِنُ أَحَدُكُمْ حَتَّىٰ يُحِبَّ لِأَخِيهِ مَا يُحِبُّ لِنَفْسِهِ» da keltirilishicha: “Sizlardan birortangiz o'zi uchun yaxshi ko'rgan narsani birodari uchun ham yaxshi ko'rmaguncha chin mo'min bo'la olmaydi” [7, 1312-b.] va «Sizlardan birortangiz o'zi uchun yaxshi ko'rgan narsani birodari uchun ham yaxshi ko'rmaguncha (komil) mo'min bo'la olmaydi» [8, 1625-b.]. Mazkur hadis insonlar o'rtasidagi tenglik, mehr-muhabbat va o'zaro hurmat tamoyillarining diniy asosini tashkil etadi. Hadisdagi “birodar” tushunchasi ko'plab muhaddis va sharhlovchilar tomonidan insoniyatning umumiy birdamligi ma'nosida ham talqin qilingan [9, p. 13]. Ushbu hadis nafaqat musulmonlarga, balki

barcha insonlarga nisbatan tinchliksevar va bag'rikeng munosabatda bo'lish zarurligini anglatadi.

Islom tarixida Muhammad s.a.v. turli din vakillari bilan tinch-totuv munosabatlarni yo'lga qo'yganlar. Madinada yahudiy va boshqa diniy jamoalar bilan tuzilgan ijtimoiy kelishuvlar buning amaliy ifodasidir. Hadislarda boshqa din vakillarining huquqlarini himoya qilishga alohida e'tibor qaratilgan. Muhammad s.a.v. g'ayridin fuqarolarning huquqlarini himoya qilib: «Kim bir zimmiyga zulm qilsa yoki uning haq-huquqini poymol etsa, Qiyomat kuni men uning da'vogari bo'laman», - deb ta'kidlaganlar [10, pp. 170–171, hadis № 3052]. Mazkur hadis diniy mansubligidan qat'i nazar, inson huquqlarini himoya qilish va adolatni ta'minlash zarurligini ko'rsatadi. Bu tamoyil zamonaviy inson huquqlari konsepsiyasining muhim jihatlari bilan hamohangdir.

Imom at-Termiziyning hadislarida: الرَّاحِمُونَ يَرْحَمُهُمُ الرَّحْمَنُ، ارْحَمُوا مَنْ فِي الْأَرْضِ يَرْحَمَكُمُ مَنْ فِي السَّمَاءِ “Rahm qiluvchilarga Rohman rahm qiladi. Yer yuzidagilarga rahm qilinglar, osmondagi Zot sizlarga rahm qiladi” [11, 323-324-bb.], - deya ta'kidlanadi. Ushbu hadis barcha insonlarga nisbatan mehr-shafqatli munosabatni targ'ib qiladi.

Hadislar insonlarni nasl-nasab, irq yoki milliy mansublik asosida ajratishni qoralaydi. Muhammad s.a.v. Vido hajidagi mashhur xutbalarida: “Arabning arab bo'lmagandan, arab bo'lmaganning arabdan, oq tanlining qora tanlidani, qora tanlining oq tanlidani ustunligi yo'q. Ustunlik faqat taqvo bilandir”, - deya bayon qilganlar. Mazkur hadis millatlararo tenglik va insonlar o'rtasidagi adolatli munosabatlarning muhim mezoni hisoblanadi. Unda insonning qadri millati yoki irqi bilan emas, balki uning ma'naviy-axloqiy fazilatlari bilan belgilanishi ta'kidlanadi. Shuningdek, Muhammad s.a.v. jamiyatdagi birlik va hamjihatlikni mustahkamlashga da'vat qilib: مَثَلُ الْمُؤْمِنِينَ فِي تَوَادِهِمْ وَتَرَاحُمِهِمْ وَتَعَاطُفِهِمْ مَثَلُ الْجَسَدِ، إِذَا اشْتَكَى مِنْهُ عُضْوٌ، تَدَاعَى لَهُ سَائِرُ الْجَسَدِ بِالسَّهَرِ وَالْحُمَّى “Mo'minlar o'zaro muhabbat, mehr-shafqat va hamdardlikda bir tanaga o'xshaydi. Agar uning bir a'zosi og'risa, butun tana bedorlik va isitma bilan unga hamdard bo'ladi” [12, 223-224], - deganlar. Bu hadis ijtimoiy birdamlik va o'zaro yordam tamoyillarining ahamiyatini ifodalaydi.

Bugungi kunda dunyoning ko'plab davlatlari ko'p millatli va ko'p konfessiyali jamiyat sifatida rivojlanmoqda. Bunday sharoitda diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik ijtimoiy barqarorlikning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Hadislarda ilgari surilgan adolat, insonparvarlik, bag'rikenglik va hamjihatlik g'oyalari zamonaviy fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Xususan, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik siyosati ham asrlar davomida shakllangan ma'naviy meros, jumladan, hadis ilmi va islom sivilizatsiyasi qadriyatlari bilan

uyg'un holda rivojlanmoqda. Bu esa jamiyatda tinchlik, o'zaro hurmat va fuqarolik birdamligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda hadisi shariflardagi diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik g'oyalari zamonaviy diniy moderatsiya konsepsiyasi nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi hamda xalqaro ilmiy adabiyotlarda ilgari surilgan yondashuvlar bilan qiyosiy o'rganiladi. Tadqiqot natijasida hadislarining nafaqat diniy, balki fuqarolik jamiyati va ijtimoiy integratsiyani mustahkamlashdagi metodologik ahamiyati asoslab beriladi.

Yosh avlod tarbiyasi har qanday jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Globallashuv, axborot oqimlarining keskin ortishi va ma'naviy tahdidlarning kuchayishi sharoitida yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash dolzarb vazifaga aylanmoqda. Islom ma'naviy merosining muhim tarkibiy qismi bo'lgan hadislar yoshlar tarbiyasida axloqiy, ma'naviy va ijtimoiy fazilatlarni shakllantirishda muhim manba hisoblanadi. Hadislarda insonparvarlik, halollik, adolat, ilmga intilish, ota-onaga hurmat, bag'rikenglik va mehnatsevarlik kabi fazilatlar targ'ib etilgan bo'lib, ular yoshlarning komil inson sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Hadislar Qur'oni karimdan keyingi ikkinchi asosiy manba sifatida musulmonlarning hayotiy faoliyatini tartibga soluvchi axloqiy va ma'naviy mezonlarni belgilaydi. Asosan, yoshlarni tarbiyalashda ilm-ma'rifat, odob-axloq va ezgulik tamoyillariga alohida e'tibor qaratiladi. Hadislarda ilm olishning ahamiyati alohida ta'kidlanadi: «طَلَبُ الْعِلْمِ فَرِيضَةٌ عَلَى كُلِّ مُسْلِمٍ» ("Ilm talab qilish har bir musulmon uchun farzdir") [13, 146-147-bb]. Mazkur hadis yoshlarni bilim olishga, o'z ustida ishlashga va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shadigan barkamol shaxs bo'lib yetishishga undaydi.

Yoshlarda axloqiy fazilatlarni shakllantirishda muhim o'rin tutib, hadislar yoshlarni yuksak axloq egasi bo'lishga chorlaydi. Muhammad s.a.v. «إِنَّمَا بُعِثْتُ لِأَتَمِّمَ مَكَارِمَ الْأَخْلَاقِ» («Men go'zal axloqni kamoliga yetkazish uchun yuborildim») [14, 904-b.], - deganlar. Ushbu hadis yoshlar tarbiyasida axloqiy qadriyatlarning ustuvor o'rin tutishini ko'rsatadi. Halollik, rostgo'ylik, sabr-toqat, mehr-oqibat va kamtarlik kabi fazilatlar hadislar orqali yoshlar ongiga singdiriladi.

Ota-onaga hurmat va oilaviy qadriyatlarga oid hadislarda ota-onaga hurmat va ehtirom ko'rsatish eng ulug' amallardan biri sifatida baholanadi. Jumladan, «رِضَا الرَّبِّ فِي رِضَا الْوَالِدِ، وَسَخَطُ الرَّبِّ فِي سَخَطِ الْوَالِدِ» («Parvardigorning roziligi ota-onaning roziligidadir, Uning g'azabi esa ota-onaning g'azabidadir»), - deya ta'kidlaganlar. Bu hadis yoshlarni oilaviy qadriyatlarga sodiq bo'lishga, ota-onaga hurmat va ehtirom ko'rsatishga undaydi.

Hadislar yoshlarda bag'rikenglik, insonparvarlik va hamjihatlik tuyg'ularini rivojlantirishga xizmat qiladi. Hadiskar yoshlarni o'zaro hurmat, hamkorlik va mehr-oqibat

ruhida tarbiyalashning muhim manbai hisoblanadi. Hadislarda halol mehnat qilish va mas'uliyat bilan yashash targ'ib etiladi. Insonning eng yaxshi rizqi o'z mehnati bilan topgan daromadi ekanligini ta'kidlagan. Bu esa yoshlarni kasb-hunar egallashga, jamiyat oldidagi mas'uliyatini his etishga va mehnatsevar bo'lishga undaydi.

Bugungi kunda hadislar asosidagi ma'naviy-ma'rifiy tarbiya yoshlarni turli yot g'oyalar, ekstremizm, zo'ravonlik va ma'naviy tahdidlardan himoya qilishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Ta'lim muassasalarida hadislar mazmunidan foydalanish yoshlarning milliy va diniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalanishiga, tanqidiy fikrlash va sog'lom dunyoqarashni shakllantirishga yordam beradi. Hadislar yoshlar tarbiyasining muhim ma'naviy-manaviy manbasi bo'lib, ularda ilgari surilgan ilm-ma'rifat, axloq, bag'rikenglik, mehnatsevarlik, ota-onaga hurmat va insonparvarlik g'oyalari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Yoshlar tarbiyasida hadislar mazmunidan samarali foydalanish barkamol avlodni voyaga yetkazish, jamiyatda ma'naviy barqarorlikni mustahkamlash va milliy qadriyatlarni asrab-avaylashga xizmat qiladi.

Xulosa. Hadisi shariflar diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikning muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Ularda inson qadr-qimmatini ulug'lash, boshqa din va millat vakillariga hurmat bilan munosabatda bo'lish, adolat va mehr-shafqat tamoyillariga amal qilish g'oyalari keng yoritilgan. Rasululloh ﷺ ning hadislarida ifodalangan mazkur qadriyatlar bugungi globallashuv davrida ham o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Shuning uchun hadisiy merosni chuqur o'rganish va uning insonparvarlik g'oyalarini jamiyat hayotiga tatbiq etish diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Khan I., Elius M., Nor M.R.M., Yusoff M.Y.Z.M., Noordin K., Mansor, F.A. Critical Appraisal of Interreligious Dialogue in Islam. SAGE Open, Vol. 10, No. 4, 2020. - Kuala Lumpur, Malaysia. - Pp. 1–10.
2. Zaini Muhammad. Islamic Tolerance in Theory and Practice: Insights from Hadiths and Contemporary Relevance. El-Sunan: Journal of Hadith and Religious Studies, Vol. 2, No. 2, 2024.- Banda Aceh, Indonesia. pp. 109–122.
3. Khoir Moh. Misbakhul. The Influence of Textual and Contextual Understanding of Hadith on Tolerance and Interfaith Cooperation. Jurnal Living Hadis, Vol. 10, No. 1, 2025. - Yogyakarta, Indonesia. - Pp. 1–22.
4. Холмўминов Ж. Жомий ва ваҳдат ул-вужуд таълимоти. Монография - Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2008. - 232 б.

5. Холмўминов Ж. Тасаввуф онтологияси. Монография. - Тошкент: “Yosh avlod matbaa”, 2021. - 190 б.
6. Холмуминов Дж. Философия и суфизм. Противоречие и взаимосвязи. Книга I. Монография. - Ташкент: Ilm-ma’rifat, 2025. - 240 с.
7. Muhammad al-Bukhari. Al-Jome’ as-sahih. – Bayrut (Livan): Dor Ibn Kasir, 2002. – 1312 b.
8. Muslim ibn al-Hajjaj. Sahih Muslim. – Ar-Riyod (Saudiya Arabistoni): Darussalom, 2007. – 1625 b.
9. Al-Bukhari Muhammad ibn Ismail. Al-Jāmi‘ al-Ṣaḥīḥ (Ṣaḥīḥ al-Bukhārī). Riyadh: Darussalam Publishers & Distributors, Saudi Arabia, 1997. Vol. 1. Kitāb al-Īmān (Book of Faith), Hadith №. 10. - P. 13.
10. Abu Dawud Sulaymon ibn al-Ash’as as-Sijistoniyy. Sunan Abi Dawud. Riyadh: Darussalam Publishers & Distributors, Saudi Arabia, 2008. Kitāb al-Kharāj wa al-Imārah wa al-Fay’, Hadith № 3052, Vol. 3. - Pp. 170–171.
11. At-Tirmidhiyy Muhammad ibn Iso. Al-Jāmi‘ al-Kabīr (Sunan al-Tirmidhiyy). Riyadh: Darussalam Publishers, Distributors. - Saudi Arabia, 2007. Vol. 4, Book 27 (Kitāb al-Birr wa al-Ṣilah), Hadith № 1924. - pp. 323–324.
12. Al-Bukhari Muhammad ibn Ismail. Al-Adab al-Mufrad. - Beirut: Lebanon, Mu’assasat al-Risalah, 2014. Hadith № 601. - Pp. 223–224.
13. Ibn Mājah Abū ‘Abdillāh Muḥammad ibn Yazīd al-Qazwīnī. Sunan Ibn Mājah. Riyadh: Darussalam Publishers & Distributors, Saudi Arabia, 2007. Kitāb al-Sunnah, Bāb Faḍl al-‘Ulamā’ wa al-Ḥathth ‘alā Ṭalab al-‘Ilm, Hadith № 224, Vol. 1. - Pp. 146–147.
14. Mālik ibn Anas. Al-Muwatta’. Abu Dhabi: United Arab Emirates, Zayed Bin Sultan Al Nahyan Foundation for Charitable and Humanitarian Works, 2004. Kitāb Ḥusn al-Khuluq, Hadith № 1614, Vol. 2. - P. 904.